

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**TARBIYA FANIDAN KASBIY SERTIFIKATLASH TEST
TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

TARBIYA FANIDAN KASBIY SERTIFIKATLASH TEST TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentiga muvofiq ishlab chiqildi. Hujjat tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholash uchun qo‘llaniladigan test sinovlarining mazmuni, tuzilmasi va baholash mezonlarini belgilaydi.

Spetsifikatsiya test topshiriqlarining mazmuni, tuzilmasi, baholash mezonlari, test topshiriqlarining shakli, kognitiv darajalari hamda baholash jarayonini tashkil etish tartibini belgilab beradi.

Mazkur hujjat test topshiriqlarini ishlab chiqishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi hamda baholash jarayonining shaffofligi, adolatliligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlashga qaratilgan.

I. Umumiy tamoyillar

Baholashning asosiy maqsadi tarbiya fani o‘qituvchilarining fan bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, tarbiya fanini o‘qitish metodikasi bo‘yicha bilimlari, pedagogik mahorati kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholashdan iborat. Baholash natijalari pedagog kadrlarni kasbiy sertifikatlash jarayonida qaror qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-fevraldagi “Davlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 87-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2026-yil 3-iyuldagi “Davlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash nazorat sinovini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 233-son buyrug‘i.

III. Baholash qamrovi

Tarbiya fani o‘qituvchilari uchun mutaxassislik fanidan 40 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta test topshirig‘i taqdim etiladi va umumiy test topshirig‘ini bajarish uchun ajratilgan vaqt 90 daqiqa etib belgilanadi. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to‘g‘ri javobni talab qiladigan (Y1), moslashtirishni talab qiladigan (Y2) va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3)*) foydalaniladi. Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun

sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan.

IV. Test tuzilmasi

Test sinovi tarbiya fanining asosiy mazmun yo‘nalishlarini qamrab oladi. Xususan, test topshiriqlari tarbiya fani mazmun soha va bo‘limlari, tarbiya fanini o‘qitish metodikasi va pedagogik mahoratga oid bilim hamda ko‘nikmalarni baholashga qaratilgan. Test topshiriqlarining mazmuni umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartlari, amaldagi o‘quv dasturlari hamda fan bo‘yicha metodik talablar asosida shakllantiriladi.

Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalari bo‘yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Bilim va ko‘nikmalar	Testlar soni
1. Insonning ma‘naviy va axloqiy qadriyatlari (1–3-savollar)		
Insonning ma‘naviy va axloqiy qadriyatlari	–milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aniqlay olish; –go‘zal fazilatlar, muomala va muloqot madaniyati qoidalarini topish; –“men insonman” tamoyillari asosida jarayonlarni aniqlash va baholash; –to‘g‘ri va noto‘g‘ri xatti-harakatlarni ajrata olish; – tenglik va haqqoniylik prinsiplari hamda etiket qoidalarini amaliy misollarda to‘g‘ri qo‘llay olish; –atamalarni izohini topish, fikr va g‘oyani aniqlash, qoida va ma‘lumotlarni vaziyatga mos qo‘llash, yechimini topish; –xatti-harakatlardagi xatoliklarni topish, taqqoslash orqali sabab–oqibatni aniqlash hamda asosli dalillar yordamida to‘g‘ri xulosani topish.	3
2. Fuqarolik hissi (4–6-savollar)		

Fuqarolik hissi	–vatanparvarlik, fuqarolik hissi, daxldorlik tushunchalarini aniqlash va ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish; –fuqarolik huquq va burchlarini farqlay olish; –oilaviy qadriyatlarning ahamiyatini aniqlash va baholash; –inson va jamiyat uyg‘unligini aniqlay olish; –faol fuqarolik darajalarini aniqlash va ularni hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olish; – Qonun o‘zi nima? savoli asosida yaxshi qonunlar va mas’uliyatli odamlarning harakatlarini baholash; –xatti-harakatlarini tahlil qilish, to‘g‘ri va noto‘g‘ri harakatlarni aniqlash va sabab–oqibatlardagi bog‘liqlikni topish; –qoida va ma’lumotlarni vaziyatga mos qo‘llash, yechimini topish; –fikir va g‘oyani aniqlash, asosli dalillar, mantiqiy izchillik va xulosalarni tahlil qila olish.	3
3. Yashashdan maqsad munosib hayot (7–9-savollar)		
Oilaviy qadriyatlar va oliy maqsad	–munosib hayot mezonlarini aniqlay olish; –muvaffaqiyatga erishish omillarini aniqlab, vaqtni samarali taqsimlash mezonlarini hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olish; –baxtiyorlik tuyg‘ularini tahlil qilish; –ma’lumotlar va qoidalarni vaziyatlarga mos tatbiq etish, yechimini aniqlay olish; –fikir va g‘oyani aniqlash, xatolarni topish, taqqoslash orqali sabab–oqibat bog‘liqliklarini aniqlash shuningdek, tahlil qilib, to‘g‘ri xulosalash.	3
4. O‘z-o‘zini anglash, o‘saman va rivojlanaman (10–13-savollar)		
O‘zgarish va tanqidiy fikrlash	–hissiyotlarni farqlay olish; –qiyin vaziyatlarda inson hissiyotlarini boshqarishga	4

	oid xatti-harakatlar yechimini topish va xulosasini aniqlay olish; –jamiyat yoki shaxsiy rivojlanishdagi o‘zgarishlarni aniqlay olish hamda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari asosida ularni tahlil qila olish; –sog‘lom turmush tarzi asoslarini topish; –to‘g‘ri ovqatlanish qoidalarini vaziyatlarga mos qo‘llay olish; –inson salomatligiga tahdidlarni aniqlash va tahlil qilish; –fikir va g‘oyani aniqlash, ma’lumotlar va qoidalarni vaziyatlarda qo‘llash, tahlil qilish, yechimini topish.	
5. Inson va jamiyat (14–20-savollar)		
Jamiyat, mahalla, oila, din, madaniyat	–jamiyat, mahalla, oila, din va madaniyat tushunchalarini aniqlash va ularni bir-biridan farqlay olish; –ularning har birini vazifalarini to‘g‘ri ajrata olish; –huquqiy me‘yorlarni aniqlash va farqlay olish; –turli xil vaziyatlarning yechimini topish va xulosasini aniqlay olish; –ma’lumotlar va qoidalarni vaziyatlarda qo‘llash, fikr, g‘oya va dalillarni aniqlash, izchillikka asoslangan xulosani topish.	7
6. Ijtimoiy tarmoq: imkoniyat va tahdidlar (21–23-savollar)		
Ijtimoiy tarmoq: imkoniyat va tahdidlar, ogohlik	–ijtimoiy tarmoqlarning imkoniyatlari va tahdidlarini aniqlay olish; –zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish hamda global tarmoqlardagi xavfsizlik va odob-axloq qoidalarini real vaziyatlarda qo‘llay olish; –soxta va ishonchli axborotlarni farqlay olish, raqamli odob qoidalarini to‘g‘ri qo‘llay olish; –ogohlik talablarini aniqlay olish; –axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish qoidalarini to‘g‘ri qo‘llash; –muloqot madaniyati va axborot haqqoniyligini tahlil qilish, baholash; –fikir va g‘oyani aniqlash, ma’lumotlar va qoidalarni vaziyatlarga mos tatbiq etish, tahlil qilish, yechimini aniqlay olish.	3
7. Ilm-ma’rifat va innovatsiya (24–29-savollar)		

Ilm-ma’rifat, innovatsiya, liderlik	–ilm-ma’rifatning shaxs va jamiyat taraqqiyotidagi o’rni hamda innovatsion va liderlik yondashuvlarining ahamiyatini aniqlay olish; –maqsadga erishish bosqichlarini “SMART” texnologiyasi asosida tahlil qila olish; –tanqidiy fikrlash, taqqoslash va sabab–oqibat munosabatlarini tahlil qila olish; –ma’lumotlar va qoidalarni vaziyatlarga mos tatbiq etish, tahlil qilish, muammolarning yechimini topish; –fikir va g’oyani aniqlash, mantiqiy izchillik va puxta, ilmiy asoslangan xulosalarni topish.	6
8.Tadbirkorlik asoslari (30–32-savollar)		
Tadbirkorlik, frilanserlik, shaxsiy rivojlanish	–tadbirkorlik va frilanserlik tushunchalarini farqlay olish; –moliyaviy va vaqt resurslarini samarali boshqara olish shuningdek, hayotiy vaziyatlarda tadbirkorlik yoki frilanserlik yondashuvlarini to’g’ri qo’llay olish; –g’oya va boylikdan foydalanish mezonlarini to’g’ri aniqlay olish; –shaxsiy rivojlanish ko’nikmalarini aniqlash; –ma’lumot va qoidalarni vaziyatlarga mos tatbiq etish va yechimini topish; –xatolarni aniqlash, taqqoslash orqali sabab-oqibat munosabatlarini ko’rsatish. Fikir va g’oyani aniqlash, asosli dalillarni tahlil qila olish.	3
9. Ekologik tarbiya (33–35- savollar)		
Tabiat va inson	–tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tamoyillari izohini topish; –tabiat va inson o’rtasidagi bog’liqlikni aniqlash va tahlil qilish; –ekologik muammolarni aniqlash va ularning to’g’ri yechimini topish; –tabiiy resurslar va ularning turlari haqidagi atama va ma’lumotlarni aniqlay olish; –fikir va g’oyani aniqlash, ma’lumot va qoidalarni vaziyatlarga mos tatbiq etish, tahlil qilish.	3
10. Tinch va xotirjam yashash baxti (36–38-savollar)		

Hamkorlik, bag'rikenglik, millatlararo hamjihatlik	–hamkorlik, bag'rikenglik va millatlararo hamjihatlik tushunchalarini farqlay olish; –millatlararo hamjihatlikni ta'minlashga oid huquqiy me'yorlarni aniqlay olish; –millatlararo muloqotda odob-axloq qoidalarini to'g'ri qo'llash, taqqoslash va tahlil qilish; –berilgan hayotiy vaziyatlarga to'g'ri yechimni topish; –fikir va g'oyani aniqlash, ma'lumot va qoidalarni vaziyatlarga mos tatbiq etish, tahlil qilish.	3
11. Jamoaviy munosabatlar (39–40-savollar)		
Ziddiyatlar va yechimlar, o'zaro yordam, jamoa bo'lib ishlash	–jamoaviy munosabatlar va ijtimoiy ko'nikmalarni aniqlash va ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llash shuningdek, ziddiyatlarni bartaraf qilish bo'yicha eng maqbul yechimni aniqlay olish; –jamoada ishlash ko'nikmalarini aniqlash va baholash; –oiladagi hayot, o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish va ziddiyatlarni oldini olishni topish; –fikir va g'oyani aniqlash, ma'lumot va qoidalarni vaziyatga mos qo'llay olish; –turli xil vaziyatlarning yechimini topish va xulosasini aniqlash va ularni taqqoslash, sabab-oqibatlarini tahlil qila olish.	2

Pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

2-jadval

1. PEDAGOGIK MAHORAT		10 ta
Pedagogik mahorat	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asosiy tushunchalari va kategoriyalari, pedagogik yondashuvlar va ta'lim paradigmalari (an'anaviy - konservativ, ratsionalistik (bixevioristik), fenomenologik (gumanistik), texnokratik va ezoterik)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogikaning tamoyillari (onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlilik, ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi va boshqalar)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – tarbiya va uning turlarini bilish, bir-biridan farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish;	

	– dars va uning turlari(yangi bilim berish darsi, mustahkamlash darsi, takrorlash va umumlashtirish darsi, –nazorat (tekshirish) darsi, aralash dars; ma’ruza darsi, suhbat darsi, amaliy dars, laboratoriya darsi, mustaqil ish darsi; an’anaviy dars, noan’anaviy dars va boshqalar)ni bilish, darsni rejalashtirish, tashkil etish va sinfni boshqarish yondashuvlarini konkret vaziyatlarda qo‘llay olish, ta’lim jarayonini loyihalashtirish va boshqarish, muammoli vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish, faoliyatini monitoring qilish; – sinf rahbarining huquq va majburiyatlarini bilish, sinf hujjatlari bilan ishlay olish, ularni yuritishda to‘g‘ri ketma-ketlikka amal qilish, sinf jamoasini to‘g‘ri shakllantirish, muloqotda pedagogik etika qoidalariga amal qilish, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarini tanlash, muammoli vaziyatda eng maqbul strategik yondashuvni qo‘llash; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o‘rish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik qobiliyat va uning turlari (didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, perspektiv-pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, baholash madaniyati, texnologik madaniyat, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, avtoritar qobiliyat va boshqalar)ni bilish va konkret vaziyatlarda qo‘llay olish, – ta’lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta’lim, muammoli ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim, evristik ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interfaol ta’lim, differensial ta’lim, integral ta’lim, o‘yinli ta’lim, inklyuziv ta’lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish; – ta’lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta’lim, muammoli ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim, evristik ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interfaol ta’lim, differensial ta’lim, integral ta’lim, o‘yinli ta’lim, inklyuziv ta’lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish; – fan mazmun sohasini o‘qitish yondashuvlari, metodikasi va texnologiyalarini bilish; – fan sohasini o‘qitish usullari va metodlarini farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlash; – fan sohasini o‘qitish bo‘yicha berilgan ta’limiy vaziyatga oid qabul qilingan qarorlarga baho berish.	10
--	--	----

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanilishini tushunish	22 ta
2	Qo'llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish	23 ta
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	5 ta

V. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasi har bir test topshirig'iga berilgan ballar yig'indisi asosida aniqlanadi. Har bir to'g'ri javob uchun **2 ball**, noto'g'ri javob uchun **0 ball** beriladi. Test sinovining eng yuqori natijasi 100 ballni tashkil etadi.

VI. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida” gi qonuni. Lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. Lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonuni. Lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni. Lex.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda gi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi 1059-son qarori. Lex.uz.
7. “Farzandnoma” kitobi O. Mahmudov. “O‘qituvchi”, Toshkent-2020.
8. Tarbiya 5-sinf o‘quvchilari uchun darslik. M. Quronov, N. Maxmudova, N. Xudaybergenova, Y. Sadikova, D. Borovskix, G. Karimova, D. Axmedova, H. Raxmatullayeva. “Novda Edutainment”, Toshkent - 2025.
9. Tarbiya 6-sinf o‘quvchilari uchun darslik. M. Quronov Yu. Risyukova, O. Tigay, O.Usmonova, S. Xafizova. “G‘afur G‘ulom”, Toshkent-2020.
10. Tarbiya 7-sinf o‘quvchilari uchun darslik. D. Kenjayev, N. Ismatova, D. Ro‘ziyeva, N. Xolmuxamedova, Sh. Sattorov, Z. Zamonov, Z. Islomov, O. Mahmudov, D. Rahimjonov, S. Akkulova, S. Shermuxamedova, S. Madaliyeva, S. Zokirova, L. Mo‘minova. “O‘zbekiston” Toshkent-2020.
11. Tarbiya 8-sinf o‘quvchilari uchun darslik. Z. Zamonov, O. Maxmudov, Z. Islomov, D. Ro‘ziyeva, D. Rahimjonov, Sh. Sattorov, N. Ismatova, S. Akkulova, S. Shermuxamedova, N. Xolmuxamedova, S. Madaliyeva, L. Mo‘minova, S. Zokirov. “Zamin nashr”, Toshkent-2020.
12. Tarbiya 9-sinf o‘quvchilari uchun darslik. Sh. Sattorov, D. Ro‘ziyeva, Z. Islomov, N. Ismatova, S. Akkulova, S. Shermuxamedova, Z. Zamonov, O. Maxmudov, D. Rahimjonov, N. Xolmuxamedova, S. Madaliyeva, L. Mo‘minova, S. Zokirova. “O‘zbekiston”, Toshkent-2020.
13. Tarbiya 10-sinf o‘quvchilari uchun darslik. N. Ismatova, Z. Zamonov, Z. Islomov, D. Rahimjonov, O. Maxmudov, D. Ro‘ziyeva, S. Shermuxamedova, S. Akkulova, N. Xolmuxamedova, Z. Jabborova. Respublika ta’lim markazi, Toshkent-2021.
14. Tarbiya 11-sinf o‘quvchilari uchun darslik. D. Kenjayev, N. Ismatova, Z. Islomov, D. Rahimjonov, D. Ruziyeva, Z. Zamonov, O. Mahmudov, S. Shermuxamedova, S. Akkulova, N. Xolmuxamedova, Z. Jabborova. Respublika ta’lim markazi, Toshkent-2021.

VII. Pedagogik mahorat bo'yicha manbalar

1. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: “Bayoz” nashriyoti, 2025. – 504 b.
3. Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Innovatsiya-ziyo” nashriyoti, 2019. – 276 b.
4. Sh. Abdiraimov v.b. Ta’limda baholash va monitoring asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, TDYU nashriyoti, 2026. – 208 bet.

Izoh: *tarbiya fani bo'yicha test topshiriqlari normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilgan o'zgarish va qo'shimchalarni inobatga olgan holda shakllantiriladi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'zgartirish kiritilganda qonunning asl manbayiga murojaat qilinadi. (O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi - Lex.uz. sayti)*

***Eslatma:** *test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*